



**YAPON VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING  
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILIGA DOIR TADQIQOTLAR**

Mamatova Nozima Maxsutali qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Yaponshunoslik oliv maktabi Lingvistika

yo‘nalishi 1-kurs magistranti

**Annotation.** Yapon maqollari dastlab qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo sohalarida tajribalarni avlodlarga yetkazish maqsadida shakllangan bo‘lib, og‘zaki adabiyotning muhim qismi hisoblanadi. Ularning o‘rganilishi Anada Yoshiyuki boshchiligidagi tadqiqot jamoasi tomonidan so‘z san’ati va ijtimoiy-madaniy antropologiya nuqtayi nazaridan olib boriladi. Yapon va koreys maqollari semantik jihatdan o‘xshashliklarga ega bo‘lib, qiyosiy tadqiqotlar orqali ularning umumiyligi va farqli jihatlari aniqlangan. O‘zbek maqollari esa Mahmud Qoshg‘ariy, Zamaxshariy va Alisher Navoiy asarlarida qayd etilgan bo‘lib, unda tazod va metaforik ifodalar keng qo‘llaniladi. Ushbu tadqiqotlar yapon va o‘zbek maqollarining madaniy va lingvistik xususiyatlarini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar.** Yapon maqollari, kotowaza (諺), og‘zaki adabiyot, Anada Yoshiyuki, Kunio Yanagita, so‘z san’ati, ijtimoiy-madaniy antropologiya, qiyosiy tadqiqot, Mahmud Qoshg‘ariy, frazeologizmlar.

**Annotation.** Japanese proverbs initially emerged as a means of passing down experiences in agriculture, craftsmanship, and trade, becoming an essential part of oral literature. Their study is conducted from the perspectives of linguistic artistry and socio-cultural anthropology by a research team led by Anada Yoshiyuki. Japanese and Korean proverbs share semantic similarities, and comparative studies have identified their common and distinct aspects. Uzbek proverbs, recorded in the works of Mahmud



Qoshg‘ariy, Zamakhshari, and Alisher Navoi, widely employ contrast and metaphorical expressions. These studies contribute to a deeper understanding of the cultural and linguistic characteristics of Japanese and Uzbek proverbs.

**Keywords:** Japanese proverbs, kotowaza (諺), oral literature, Anada Yoshiyuki, Kunio Yanagita, linguistic artistry, socio-cultural anthropology, comparative study, Mahmud Koshgariy, phraseology.

**Kirish.** Maqollar har bir xalqning madaniy merosi va tafakkur tarzi haqida muhim ma'lumot beruvchi og'zaki adabiyot namunalari hisoblanadi. Yapon maqollari qadimgi hayot tarzi, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy qadriyatlarni aks ettirib, asrlar davomida shakllangan. Ular qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo sohalarida tajriba almashish vositasi sifatida yuzaga kelgan va og'zaki adabiyotning ajralmas qismiga aylangan. Mazkur maqolada yapon maqollarining kelib chiqishi, ularning o'r ganilishi va boshqa tillardagi maqollar bilan qiyosiy tahlili ko'rib chiqiladi.

**Asosiy qism.** Yaponlar tomonidan maqollarning yaratilish tarixiga bunday qaraladi: ilgari odamlar qishloq xo'jaligida fasllar va ekinlar o'rtasidagi bog'liqlik, baliqchilar orasida esa ob-havo va dengiz sharoiti to'g'risidagi bilimlar, hunarmand va savdogarlar o'z uslub va san'atlarini o'z avlodlariga va shogirdlariga o'rgatishgan. O'shanda ularni eslab qolish oson bo'lishi uchun sodda so'z va so'z birikmalardan foydalanishgan. Bora-bora bu birikmalar maqollarga aylangan deb fikr yuritiladi.

Iyeroglifli yozuv tizimiga asoslangan yapon tilida maqol so'zi 「諺」 [kotowaza] alohida bo'laklarga ajratilganda 「言」 「彦」 deya yoziladi va bular "so'zni bezash" ya'ni so'zni pardozlash degan ma'noni anglatadi.

Yapon maqollari ustida izlanishlar qilgan olim Anada Yoshiyuki "Proverbium" nomli 1984-yildan buyon chop etib kelinayotgan jurnal haqida ayta turib Yaponiyada hali maqollarni o'r ganuvchi ilmiy uyishma yo'qligini, ammo tadqiqot jamoasi mavjudligini aytadi. Bu jamoa oyda bir marta majlis va yilda bir marta simpoziumlar o'tkazib turadi. Bu tadqiqot jamoasi maqollarni ikki jihatdan o'r ganadi. Birinchisi,

「言の技」 [koto no waza] ya’ni – so‘z san’ati, keyingisi esa, 「事の技」 [koto no waza] ya’ni – narsalar san’ati. Birinchisi Kunio Yanagita va boshqalarning xalq og‘zaki ijodida to‘plagan maqollarni o‘rganish bo‘lsa, ikkinchisi Otoo Fujii boshchiligidagi ijtimoiy va madaniy antropologiyasini o‘rganish hisoblanadi.

Mashxur yapon folklorshunosi Kunio Yanagita maqollar bo‘yicha 23 ta maqola yozgan va 148 ta maqol tadqiqot ishlarini to‘plagan. Kunio Yanagita o‘zining 「なぞとことわざ」 [nazō to kotowaza] (“Topishmoqlar va maqollar”) asarida shunday yozadi: “Oddiy odamlar mayda-chuyda gaplarni va g‘iybatni yaxshi ko‘radilar, ana shu mayda-chuyda gaplarni aytib beruvchilar esa juda ham gapishtirishga usta bo‘ladilar. Ana shu gaplarning ustiga, sayohat qiluvchilar ham noyob hikoyalarni topib kelishadi. Aynan mana shu gapishtirishga ustalar maqollarning tuzuvchisi hisoblanmaydimi? Bundan tashqari, har kuni qishloq aholisi ob-havo yoki mavsumlar, qaysidir ishni qilish uchun mukammal payt va boshqa narsalar to‘g‘risida bir-birlariga gapirib berish davomida solishtirish, matallardan foydalanishadi. Shu narsalar keyinchalik maqolga aylangan degan qarashlar ham mavjud. Qolaversa, o‘sha matal va maqollar asosan kulgi hamrohligida bo‘lgani uchun keng qo‘llanilgan. Maqollar mavzulari qiziqarli va ayni paytda, azob-uqubat muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik mavzularini ham o‘z ichiga olgan bo‘lishi mumkin. Latifa va topishmoqqa yaqin bo‘lgan maqol hammaning nutqida ochiqchasiga qo‘llaniladi. Shu tarzda maqol “so‘z san’ati” sifatida og‘zaki adabiyot sifatida bizgacha yetib keladi”<sup>1</sup>.

Yapon va koreys maqollari bo‘yicha tadqiqotlar qilgan koreys olimasi Jeong Chisuk maqollarni o‘rganishda ularni taqqoslashning o‘rnini haqidagi maqolasida bat afsil tushuntirib bergan. Jeong Chisukning fikricha alohida maqollarni solishtirganda, masalan, yapon maqolini 「壁に耳があり障子に目があり」 [kabe ni mimi ga ari shouji ni me ga ari] “Devorning qulog‘i bor, eshikning ko‘zlari bor” va shunga mos keladigan koreys maqolini

<sup>1</sup>穴田義孝「ことわざに関する社会心理学的研究序論」政経論叢 第64巻 第3・4号 117－140 p.

“낮말은 새가 듣고 밤말은 쥐가 듣는다” [najmal-eun saega deudgo bammal-eun jwiga deudneunda] (kunduzgi gaplarni qushlar, kechki gaplarni sichqonlar tingleydi) bilan taqqoslash unchalik muammo tug‘dirmaydi<sup>2</sup>.

Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek folklorining yozib olinishi va kitobat qilinishi Mahmud Qoshg‘ariy nomi bilan boshlangan. “XI asrning ulkan olimi, tilshunos Mahmud Qoshg‘ariyni hech ikkilanmay folklorist sifatida ham baholash mumkin, — deb yozgan atoqli folklorshunos Hodi Zarif. — Uning muhim kapital asari “Devonu lug‘otit turk” muallifning yuksak ma’lumot egasi, olim sifatida maqol va matallarni, mehnat, sevgi, urf-odat, mavsum-marosim qo‘shiqlarini, afsona va rivoyatlami to‘plaganligini, imkoniyat doirasida ularning yaratilishi tarixi bilan qiziqqanligini, turli xil turkiy urug‘lar, jumladan, o‘zbek xalqining qadimiy ajdodlari o‘rtasida xalq poeziyasi terminlarini o‘rganganligini yorqin ko‘rsatib turibdi. Muallif tomonidan berilgan izohlar, ayniqsa, maqol va matallarning mazmuni va qo’llanish o‘rnini haqidagi ma’lum otlar Mahmud Qoshg‘ariy keltirgan folklor materiallarining ilmiy qimmatini yanada oshiradi”<sup>3</sup> Shuningdek, xorazmlik tilshunos Abulqosim Mahmud Zamaxshariy yozib olgan maqol va matallar hamda olimning shu maqol va matallarning badiiy xususiyatlariga oid qaydlari, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning o‘zbek xalq poeziyasi namunasi sanalgan chinkalar, Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy, Mirxond, Sharafiddin Ali Yazdiy, G‘iyosiddin Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy, Hofiz Tanish Buxoriylar yozib qoldirgan afsona va rivoyatlar, Gulxaniy hamda Rojiylar yaratgan “Zarbulmasal”lardagi ko‘p sonli maqollar, xalq askiyalari folklorini to‘plash yo‘lidagi izlanishlarning o‘ziga xos ko‘rinishidir<sup>4</sup>.

Maqollar bizning nutqimizga qadimdan kiritilgan, ammo ularning kelib chiqishi haqida kam odam o‘ylaydi. Chunki u davrlarda barqaror frazeologik birliklar mavjud emas edi. Shunday bo‘lsada maqollar yangi muloqot madaniyatining shakllanishiga

<sup>2</sup> 鄭 芝淑「比較ことわざ学の可能性」言語文化論集 第XXX卷 第2号 433 – 447 p.

<sup>3</sup> Hodi Zarif. O‘zbek sovet folkloristikasi tarixidan // O‘zbek sovet folklori masalalari. Tadqiqotlar. 1-kitob. T.: «Fan», 1970, 219-b.

<sup>4</sup> Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. “Musiqa” nashriyoti 2010-yil. 3-7 b.

yordam berdi. Qadimiy dostonlarimizda keltirib o‘tilgan maqollar bugungi kunda ham o‘zing ahamiyatli yuqotmasdan xalqimiz so‘zlashuvida, adabiyotida, bir so‘z bilan aytganda fikrni qisqa, lo‘nda qilib ifodalash uchun ishlatilib kelinmoqda. “Maqol” atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan. Maqol janrining o‘rganilish tarixi Mahmud Koshg‘ariyga borib taqaladi. O‘zining “Devonu lug‘ati turk” asarida 400 ga yaqin maqol va matallar o‘rin olgan, undan tashqari so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin. Maqollar so‘z boshi o‘rnida ishlatilgan hikoyalarni ham ko‘plab uchratamiz. Adib Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida epigrafida sifatida “Otning o‘limi – itning bayrami” maqoli keltirilgan. Bu adibning mahorati bilan bir qatorda, hikoyaning mazmun-mohiyatini bir maqolda ochib bergandek ko‘rinadi.

Yangi davr o‘zbek adabiyotida olimlardan B.A.Soatov<sup>5</sup> o‘zbek xalq maqollarining janr xususiyatlari va she’riy xususiyatlarini aniqlagan. X. Sharafiddinova o‘zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e’tibor qaratgan. I. Begmuratov, R. A. Latipova, E. V. Ivanovalarning ilmiy tadqiqotlarida folklor aloqalari, jumladan maqol va matallar qiyosiy planda ko‘rib chiqilgan. Rus maqollari V.D. Chernelevaning tadqiqotida qiyosiy aspektda o‘rganilgan.

Paremik janrlar munosabati kompleks holda tadqiq etilmagan. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o‘rganilgan. Xususan, M.Z.Sadriddinovaning<sup>6</sup> ilmiy tadqiqoti o‘zbek maqol va matallari leksikasi tadqiqiga bag‘ishlangan. Maqollarga til birligi sifatida yondashish, ya’ni maqollarga turg‘un birikmalar sifatida ta’rif berish oz bo‘lsa-da dissertatsiyalarda o‘z aksni topdi. Bunday qilingan ishlar orasida Bibish Jo‘rayevaning “Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma’noviy uslubiy qo‘llanilishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini alohida

<sup>5</sup> Soatov B.A. O‘zbek xalq maqollarining janr va she’riy xususiyatlari.-T.: 1990, 53-b.

<sup>6</sup> Sadriddinova M. Z.O‘zbek maqol va matallari leksikasi.-T.: 1984, 128-b.

ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda olma maqol va ibora, maqol va matal o‘rtasidagi o‘xhash va farqli belgilarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritishga harakat qilgan.

K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov va O. Safarov kabi olimlar o‘zlarining izlanishlarida maqollarda uchraydigan badiiy tasviriy vositalarni o‘rganganlar. Olimlarning fikricha, o‘zbek maqollarida eng ko‘p uchraydigan vositalardan biri tazod (zid qo‘yish) hisoblanadi. Buning bosh sabablaridan biri, unda maqolda aks etgan voqeanning tabiatidagi ziddiyatni aks ettirish orqali tomonlardan biri yo tasdiqlanadi, yo inkor etiladi. Odatda maqollardagi tazod usulida voqelikning turli-tuman xossalari: hajmi, rangi, bo‘yi, uzunligi, masofa kabi jihatlar qarama –qarshi qo‘yiladi. Masalan:

*Yaxshiga yondash, Yomondan qoch.*

Bundan tashqari maqoldagi qisqalik va lo‘ndalik maqoldagi asosiy mazmunni keng bayon etish, uning mohiyatini atroflicha sharhlashga yo‘l qo‘ymaydi. Ana shu sababdan ham yana bir badiiy tasviriy vosita metafora ishlatiladi.

Nargiza Turapovaning “Yapon tilida “kokoro” so‘zining frazeologik birligiklarda ishlatilishiga ko‘ra milliy-madaniy xususiyatlari” to‘g‘risidagi maqolasida ham yapon somatik frazeologimlariga to‘xtalib, bir qancha misollar orqali ma’no-mazmuni yoritilib o‘tgan<sup>7</sup>.

Nilufar Safarova o‘zining magistrlik dessertatsiyasida ham yapon tilidagi bir qancha somatik frazeologizmlar ustida to‘xtalib ketgan. U “Dunyoning somatik manzarasi va uning tarjimada berilishi”<sup>8</sup> mavzusidagi magstirlik dissertatsiyasining bir bo‘limini “Bosh” leksemasi ishtirokidagi frazeologizmlar tarjimasi” deb nomlagan. U yerda Natsume Sosekining “Qalb” asarida berilgan frazeologizmlar tahlil qilingan bo‘lib, aynan “bosh” ga oid 10 ga yaqin maqollar izohlanib ketilgan. Asliyatda qanday

<sup>7</sup> Турапова Наргиза Ахмедовна. Национально-культурные особенности фразеологизма «кокоро» японского языка «Молодой учёный», г. Казань. № 1 (81) / 2015/ - 415 с.

<sup>8</sup> Safarova.N. “Dunyoning somatik manzarasi va uning tarjimada berilishi ” magistr.diss/ 2013-2014/ - 72b.

ma’no anglatishi va tarjima qilinganda qanday ma’nolarda anglash mumkinligini tahlil qilib ketgan.

O‘zbek tilida ham maqollar, matallar va frazeologizmlar bilan bog‘liq tadqiqotlar yetarlicha mavjud.

**Xulosa.** Yapon maqollari xalqning hayot tarzi, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy merosini aks ettiruvchi muhim og‘zaki adabiyot namunasidir. Ularning o‘rganilishi so‘z san’ati va ijtimoiy-madaniy antropologiya nuqtayi nazaridan olib borilib, koreys va o‘zbek maqollari bilan qiyosiy tahlillar orqali umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqollar tarkibida tazod va metaforik ifodalar keng qo‘llanilib, ularning lingvistik va semantik xususiyatlari xalqlarning tafakkur tarzi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu tadqiqotlar yapon maqollarining o‘ziga xos jihatlarini ochib berish va ularni boshqa madaniyatlar bilan taqqoslashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. 穴田義孝「ことわざに関する社会心理学的研究序論」政経論叢 第64卷 第3・4号 117—140 p.
2. 鄭芝淑 「比較ことわざ学の可能性」言語文化論集 第XXX卷 第2号 433—447 p.
3. Hodi Zarif. O‘zbek sovet folkloristikasi tarixidan / / O‘zbek sovet folklori masalalari. Tadqiqotlar. 1-kitob. T.: «Fan», 1970, 219-b.
4. Soatov B.A. O‘zbek xalq maqollarining janr va she’riy xususiyatlari.-T.: 1990, 53-b.
5. Sadriddinova M. Z,O’zbek maqol va matallari leksikasi.-T.: 1984, 128-b.
6. Oxunjon Safarov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. “Musiqa” nashriyoti 2010-yil. 3-7 b.
7. Safarova.N. “Dunyoning somatik manzarasi va uning tarjimada berilishi ” magistr.diss/ 2013-2014/ - 72 b.
8. Турапова Наргиза Ахмедовна. Национально-культурные особенности



фразеологизма «кокоро» японского языка «Молодой ученый», г. Казань. № 1 (81)  
/ 2015/ - 415 с.

